Ta'lim sifatini ta'minlash oliv ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Faktory razvitiya kul'turnogo turizma v Uzbekistane	1238
Pulatova Suray'e Ol'dashewna	
Puti effektivnogo ispolzovaniya vnutrennih investitsii v natsional'noy ekonomike	1242
Rafieva Zarina Husanova	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'naliishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'naliishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Kushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	



Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1295
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1298
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	
Внедрение цифровой трансформации высших учебных заведений.....	1302
Кучаров Аброр Сабиржанович, Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович, Набиева Нилуфар Наби қизи	
Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi	1310
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.....	1319
Davronov Saxobiddin Faxriddinovich	
O'zbekistonda suv zaxiralardan foydalanishning retrospektiv tahlili	1324
Axmedov Sayfullo Normatovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni	1334
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective	1338
Kholiyorova Shokhista	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari	1341
Taniyev Ahmadjon Bahromovich	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari	1347
Masharipov Maxim Bekturdiyevich	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni	1352
O. Jono'zoqov	
Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish	1358
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation	1364
Fayzieva Nargiza Rabimovna	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va tahlili	1371
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni	1375
Yo'idosheva Iroda Ibodulla qizi	
Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari	1380
Fayziyev Oybek Raximovich, Altimbetov Amirbek Koishibekovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati..	1389
Kalikov Suyun Ravshanovich	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar	1394
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida islomiylar moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash	1411
Maxkamboyev Komil Abdulxakovich	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda klaster-kooperatsiya tizimi samaradorligini oshirish masalalar	1416
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash.....	1424
Raximov Furqat Jalolovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari	1431
Alimbayeva Sevara Alimbayevna	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA KLASTER- KOOPERATSIYA TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALAR

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna

PhD, dotsent v. b., Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishslashda klaster-kooperatsiya tizimi samaradorligini oshirish masalalari bayon qilingan. Qishloq xo'jaligidagi klaster-kooperatsiya tizimini rivojlantirish orqali dorivor o'simliklarni yetishtirish samaradorligini oshirish yo'llari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: dorivor o'simliklar, klaster, kooperatsiya, qayta ishslash, eksport, fermer, dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari, sog'lqnasi saqlash, urug'lik, mineral o'g'itlar, texnika, yoqilg'i, farmatsevtika tarmog'i, sog'lomlashtirish.

Abstract: This article discusses issues of increasing the efficiency of the cluster-cooperative system in the cultivation and processing of medicinal plants. Ways to increase the efficiency of growing medicinal plants through the development of a system of cluster cooperation in agriculture have been studied.

Key words: medicinal plants, cluster, cooperation, processing, export, farmer, farms, farmers, health, seeds, mineral fertilizers, equipment, fuel and, pharmacy chain, health.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы повышения эффективности кластерно-кооперативной системы при выращивании и переработке лекарственных растений. Изучены пути повышения эффективности выращивания лекарственных растений за счет развития системы кластерной кооперации в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: лекарственные растения, кластер, кооперация, переработка, экспорт, фермер, фермы, аграрии, здоровье, семена, минеральные удобрения, техника, топливо и, аптечная сеть, оздоровительный.

KIRISH

Klaster tizimi qo'llanilayotgan tarmoqlar qatoriga endilikda dorivor o'simliklar sohasi ham kiritildi. Prezidentimizning 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, joriy yil 1 maydan boshlab dorivor o'simliklarni yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqr qayta ishslash klasterlari tashkil etilishi belgilandi.

O'simlik klasteri qanday yo'lga qo'yiladi? Bu savolga O'zbekiston Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi olimlarining faoliyati misolida javob izlasak. Sababi, Nurota tumanining chekka qishloqlarida ana shu tajriba muvaffaqiyatlari yo'lga qo'yilmoqda.

Shartnomada yetishtirilgan dorivor o'simliklarni bugungi bozor talabidan kelib chiqib, kelishilgan narxlarda sotib olishni klaster o'z zimmasiga oladi. Bunda klaster tomonidan dorivor o'simliklarning qaysidir turini ekish istagini bildirgan fermer va tomorqa yer egalari ushbu dorivor o'simliklar urug'lari, ekish va parvarishlash agro-texnikasi to'g'risidagi uslubiy-amaliy qo'llanmalar bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari, Navoiy bo'limi olimlari tomonidan ekilgan dorivor o'simliklar o'sish jarayonining doimiy monitoringi videokuzatuv asosida va bevosita joylarga chiqqan holda olib boriladi hamda mutaxassislardan zaruriy tavsiyalar beriladi. Shuningdek, bo'lim olimlari tomonidan dorivor o'simliklarni ekish uchun yer maydonini tayyorlashdan tortib, to hisolni yig'ib olishgacha bo'lgan davrdagi barcha sug'orish, o'g'it bilan oziqlantirish va zaruriy agrotexnika tadbirlariga sarflanadigan xarakyatlar kalkulyasiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu narxlardan shartnomada asosida dorivor o'simliklarni ekishni rejalashtirgan fermerlar va tomorqa yer egalariga taqdim etiladi. Agar dorivor o'simliklarni ekishni rejalashtirgan fermer va tomorqa yer egasida mablag'ga ehtiyoj bo'lsa, klaster tomonidan ta'minlab beriladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Dorivor o'simlik klasterining asosiy vazifasi qilib quyidagilar belgilab qo'yilgan:

- dorivor o'simlik yetishtiruvchilar bilan yetishtirilgan mahsulotni xarid qilish bo'yicha shartnomalar tuzish, ularni urug'lik, mineral o'g'itlar, texnika, yoqilg'i va boshqa vositalar bilan ta'minlash;
- ixtisoslashtirilgan hududlarda dorivor o'simliklarni yetishtirish, urug'liklar va ko'chatlar tayyorlash, bosqichma-bosqich zamonaviy dorivor o'simliklar plantatsiyalari tashkil etish;
- dorivor o'simliklarni yetishtirish va urug'chiligin tashkil etishda ilg'or ilm-fan yutuqlarini qo'llash;
- dorivor o'simliklar yetishtirish va ularni qayta ishlash bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro faol hamkorlik qilish va sohaga bosqichma-bosqich innovatsion yechim (nou-xau)lar joriy etish;
- dorivor o'simliklar yetishtirish va ularni qayta ishlashga xorijiy kompaniyalarning investitsiyalari hamda ilg'or texnologiyalarini jaib qilish;
- dorivor o'simliklar va ulardan olinadigan dori-darmon mahsulotlarga bo'lgan ichki bozor talabini qondirish hamda ularni eksport qilish;
- tajriba va ma'lumotlarning doimiy almashinuvini tashkil etish orqali ushbu yo'nalishdagi xorijiy ilmiy tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, xalqaro tadqiqot dasturlari, anjumanlar va simpoziumlarda ishtirot etish.

Albatta, bunda ajratilgan mablag' fermer va tomorqa egalari tomonidan shartnoma asosida yetishtirilgan hosilning sotib olinish narxidan chegirib qolinadi.

Klaster tashkil etilgandan keyingi ikkinchi bosqichda bevosita klasterning o'ziga 50 hektar yer maydoni olinadi va 100 foiz yetishtirilgan hosilni qayta ishlash yo'lga qo'yiladi. Klaster eksportga ham ko'maklashadi.

Qarorda ta'kidlanganidek, dorivor o'simlik yetishtiruvchilar bilan mahsu-lotni xarid qilish bo'yicha shartnomalar tuzish, ularni urug'lik, mineral o'g'itlar, texnika, yoqilg'i va boshqa vositalar bilan ta'minlash, ixtisoslashtirilgan hududlar-da dorivor o'simliklarni yetishtirish, urug'liklar va ko'chatlar tayyorlash, bosqichma-bosqich plantatsiyalar tashkil etish klasterning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Demak, dorivor o'simliklar klasteri faoliyatida ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlarining integratsiyalashuvi o'z ifodasini topadi. Dehqon yerning tilini tushunadi, o'simlik yetishtirishning xalqona va sinalgan usullarini biladi. Ammo ularning barchasi ham shifobaxsh o'simliklarning tasnifi-yu, uni yetishtirishdagi zamonaviy fan yutuqlaridan xabardor bo'lavermaydi. Shundan kelib chiqib, klasterlar zimmasiga dorivor o'simliklarni yetishtirish va urug'chiligin tashkil etishda ilg'or ilm-fan yutuqlarini qo'llash, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro faol hamkorlik qilish va sohaga bosqichma-bosqich innovatsion yechim(nou-xau)lar joriy etish, xorijiy kompaniyalar investitsiyalari hamda ilg'or texnologiyalarini jaib qilish kabi masalalar ham yuklangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Klaster dorivor o'simliklar va ulardan olinadigan mahsulotlarga bo'lgan ichki bozor talabini o'rganish bilan birga eksport qilishda ham dehqonga ko'makchi bo'ladi. Foyda 3 milliard so'mdan oshadi.

Fermerlar va tomorqa egalari bilan hamkorlikning ushbu usulida 50 hektar maydonda dorivor o'simliklar yetishtirish natijasida taxminiy hisob-kitoblarimizga ko'ra, 10 hektar yerga ekilgan topinamburdan 200 tonna, 10 hektar moychechakdan 4 tonna, 10 hektar amarantdan 15 tonna, 5 hektar kunjutdan esa 10 tonna hosil olishimiz mumkin. Agar olingan hosilning 50 foizi qayta ishlansa, ya'ni tozalanib, quritilib, qadoqlansa, bundan keladigan foyda taxminan 3 milliard so'mdan ko'proqni tashkil etadi.

Oldimizda turgan asosiy masalalardan biri klaster faoliyatini yo'lga qo'yishga ketadigan dastlabki mablag'ni topishdir. Bunda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan e'lon qilingan grantlar, banklar tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlar yoki viloyatdag'i tadbirkor va fermerlarning moliyaviy ko'magiga tayanamiz. Bugungi kunda dorivor o'simliklarni chuqur qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan O'zFA O'simlik moddalari kimyosi instituti bilan samarali hamkorlik qilish ham rejalashtirilmoqda. Ma'lumki, kooperatsiya nazariyasida kooperatsiyaning ikki turi mavjud: vertikal va gorizontal. Vertikal kooperatsiyasi qishloq xo'jaligi korxonalarli, ularning bo'linmalari, boshqa tuzilmalari yoki resurslarning bir qismini qayta ishlash sanoati va agrosanoat majmuasining tegishli tashkilotlari bilan birlashtirish shaklida mavjud.



1-jadval: Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha SWOT tahlili


Kuchli tomonlari (S)	Kuchsiz tomonlari (W)
<p>dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun qulay barpo etishga qaror qilingan mavjudligi;</p> <p>-qayta ishlashni rivojlantirish uchun xom ashyo resurslarining mavjudligi;</p> <p>-kavrak yetishtirish va qayta ishlash tizimini rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy baza (strategiya, qonun, qaror, dastur va b.) yetarliligi;</p> <p>-kavrakni yetishtirish va qayta ishlashning yuqori rentabelligi;</p> <p>-ichki va tashki bozorlarda kulay vaziyatlar mavjudligi (talab yuqoriligi);</p> <p>-qayta ishlash korxonalarida yangi zamonaviy uskunalar mavjudligi;</p> <p>-ilmiy texnik va kadr salohiyatining yetarliligi;</p> <p>-zamonaviy ishlab chiqarish infratuzilmalari rivojlangan qayta ishlash korxonalar mavjudligi;</p> <p>-qayta ishlash korxonalarida innovatsiya va investitsiya faoliyatining barqaror rivojlanayotganligi.</p>	<p>-ba'zi dorivor o'simliklarni yetishtirishga yuqori agrotexnik talablar qo'yilishi;</p> <p>-yuqori hosilli navlar yetishmasligi va mavjudlari hosildorligining pastligi;</p> <p>-o'rmon, fermer va dehqon xo'jaliklarida hamda tomorqa yer egalarida hosilni saqlash va birlamchi qayta ishlash uchun sharoitlar yetarli emasligi;</p> <p>-dorivor o'simliklarni yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari va qayta ishlash korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning baho, xom ashyo hajmi, yetkazib berish, qayta ishlash shartlari kabi masalalarning to'liq yechilmaganligi;</p> <p>-xalqaro standartlar talablariga javob beradigan raqobatchilarining mavjud emasligi;</p> <p>-qayta ishlash korxonalar ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilmaganligi;</p> <p>- dorivor o'simliklar mahsulotlarini qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlar assortimentining kamligi;</p> <p>-dizayn, reklama va bozor ishtiroychilarini axborot bilan ta'minlash darajasining yaxshi rivojlanmaganligi.</p>
Imkoniyatlar (O)	Xavf-xatarlar (T)
<p>-innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yangi korxonalarni barpo etish hisobiga dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash hajmini ko'paytirish;</p> <p>-ishlab chiqarish texnologiyasiga qat'iy rioya qilish, al mashlab ekish, elita urug'liliklar va o'g'itlarni qo'llash hisobiga dorivor o'simliklar sifatini oshirish;</p> <p>-soya doni yetishtiruvchi va qayta ishlash korxonalar tizimida logistikani rivojlantirish va natijada mahsulotlarni yetkazib berish xarajatlarini kamaytirish;</p> <p>-bojxona to'lovlar, kvotalar, tariflar, subsi-diyalar va solikka tortishni optimallashтирish;</p> <p>-viloyat (hudud) miqyosida: "xom-ashyo ta'minoti - qayta ishlash - tayyor mahsulot- sotish" zanjirining samaradorligini ta'minlay-digan tadbirlar tizimini ishlab chiqish;</p> <p>-innovatsiyalar va yuksak texnologiyalarni rivojlantirish asosida.</p>	<p>-tuproq-iqlim sharoitlari, ishlab chiqarish texnologiyalari va boshqa tadbirlarga rivoja qilinmasligi oqibatida dorivor o'simliklar hosildorligining pasayib ketishi;</p> <p>-texnik va texnologik yangilanishlarda raqobatchilardan orqada qolish xavfi;</p> <p>-malakali mutaxassislarning agrar sohadan ketib qolishi va aholining ko'payishi;</p> <p>-dorivor o'simliklar bozorida mintaqalararo raqobatning kuchayishi;</p> <p>-elektr energiyasi, o'g'it va sanoat mahsulotlari bahosining oshib ketishi oqibatida ular bahosi va qishloq xo'jalik mahsulotlari (dorivor o'simliklar) bahosi o'rtasidagi paritetning buzilishi;</p> <p>-ajratilayotgan subsidiyalar va imtiyozli bank kreditlarining yetishmasligi.</p>

TAHLIL VA NATIJALAR

Bu turdag'i kooperatsiya qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va market-ningni yagona iqtisodiy siklga bog'laydi. Gorizontal kooperatsiya mulkchilik va boshqaruvning turli shakllaridagi qishloq xo'jaligi korxonalarining birlashuvini o'zida namoyon etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan uyushma kooperatsiya shaklini o'zida namoyon etib, ko'proq aralash, ya'ni yuqorida keltirilgan kooperatsiyaning ikki turini o'zida mujassam qiladi. Bu esa ushbu subyektlarning mulkchilik, shartnomalar va boshqa iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda qiyinchiliklar va manfaatlar to'qnashuvni yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligida klaster tizimi tobora keng tadbiq etilmoqda. Bu tizim deyarli barcha qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida, xususan paxtachilikda, urug'chilikda, parrandachilikda, meva-sabzavotchilikda samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Shuni inobatga olib, mintaqada dorivor o'simliklar klasterlarini tashkil etish, uning yadrosida aynan dorivor o'simliklar yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar bo'lishi maqsadga muvofiq.

Dorivor o'simliklar klasterlari, ularni yetishtiruvchilar va qayta ishlovchilar 2023-yil 1-yanvarga qadar mam-lakatimizda ishlab chiqarilmaydigan quyidagi mahsulotlarni olib kelayotganda bojxona bojlarini to'lashdan ozod qilinadi:

- xom ashyo, shu jumladan madaniy plantatsiyalar barpo etish uchun urug' va ko'chatlarni, uskunalar hamda maxsus texnikalarni;
- fitobarlar uchun vending avtomatlarini – imtiyozlar berilishi hisobidan bo'shaydigan mablag'larni ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga maqsadli yo'naltirgan holda.



1-rasm: Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash tashkilotlari uyushmasi ijro etuvchi apparatining tuzilmasi¹

- | | |
|--|---|
| 1. Tayyorgarlik bosqichi | • Dorivor o'simliklar bozorini tahlil qilish;
• klaster ishtirokchilarini va biznes g'oyani shakllantirish hamda ularga tushuntirish |
| 2. Klaster va kooperatsiya tuzilmasi va faoliyatini loyihalashtirish bosqichi | • Dorivor o'simliklar xom ashyosi va dorivor o'simliklar bozorini ko'p omillik tahlil qilish;
• Biznes maqsadini va ishtirokchilar tarkibini aniqlash;
• Tushuntirish ishlari va tashkiliy-normativ xujjatlarni tayyorlash |
| 3. Klaster va kooperatsiya tuzilmasini shakllantirish | • Ishlab chiqarishning texnologik zanjirini shakllantirish, investitsiyalar va investorlarni jalg qilish;
• Klaster va kooperatsiyaning muvofiglashtiruvchi kengashi va ijrochi direksiyasini shakllantirish;
• Ichki ish standartlari, reglamentlar va normativlarni tasdiqlash;
• Klaster va kooperatsiya ishtirokchilarini o'rtaida shartnomalarni rasmivlashtirish |
| 4. Klaster va kooperatsiya faoliyatini rivojlantirish bosqichi | • Investitsiyalar, investorlarni va yangi ishtirokchilarni jalg qilish;
• Dorivor o'simliklar mahsulotlarini eng qimmat bozorlarga va eksportga olib chiqish;
• Dorivor o'simliklar mahsulotlari xilma-xilligi va brendini rivojlantirish;
• Agrokластer faoliyatini tahlil qilish |
| 5 Barqaror rivojlanishni ta'minlash | • Klaster va kooperatsiyaga eng ko'p ishtirokchilarni jalg qilish va bozorda katta ulushni egallash;
• Klaster va kooperatsiyaning tuman, hudud, viloyat respublika miosvosida tan olish |
| 6. Klaster va kooperatsiya tuzilmasi hamda faoliyatini diversifikatsiyalash bosqichi | • Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va bozor konyukturasiga moslashish |

2-rasm: Hududiy "Dorivor o'simliklar klasteri" va "Dorivor o'simliklar kooperatsiyasi" ni shakllantirish bosqichlari²

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



Buning uchun esa, tegishli vazirlik va idoralarning “Dorivor o’simliklar yetishtirishini tashkil etishning zamонави shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarorini qabul qilish va unga asosan, sinov tariqasida hududiy “Dorivor o’simlikchilik klaster-kooperatsiyasi”ni tashkil etish kerak. Ushbu loyihaning afzalligi shundaki, dorivor o’simliklarni qayta ishlovchi korxonalar bevosita o’zlari xom ashyo yetishtirish jarayonlari ishtirokchisiga aylanadi. Bu qishloq xo’jaligi va sanoat integratsiyalashuvini jadallashtirib, korxonalarining sifatli, tannarxi arzon, eng muhim, qayta ishlash korxonalarining ehtiyojga yarasha xom ashyo bilan to’liq ta’minlanishini kafolatlaydi.


Dorivor o’simlikchilik klaster-kooperatsiyasi – bu geografik jihatdan bir hudud (yoki mintaqada) joylashgan hamda bir yoki bir nechta mustaqil yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bozor (ixtiyoriylik) tamoyillari asosida o’zaro birlashib ishlab chiqarishning zamонави texnologiyalaridan foydalangan holda dorivor o’simliklarni yetishtirish va ko’paytirish yoki shartnomaga asosida xom ashyonini sotib olishdan uni dastlabki qayta ishlash, ulardan olinadigan turli xildagi yuqori qo’shilgan qiymatga ega bo’lgan birlamchi va ikkilamchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va chuqr qayta ishlash, qadoqlash, saqlash, tashish va sotish, urug’chilik ishlarini rivojlantirish, yagona texnologik zanjorda qo’shilgan qiymatni yaratuvchi yangi xo’jalik yuritish tizimini shakllantirish usuli, deb aytish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sodda qilib aytganda, dorivor o’simlikchilik klaster-kooperatsiyasi, bu – yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar majmui sifatida birlashadi. Mazkur yangi tuzilma innovatsion iqtisodiyotga o’tishning muhim bosqichi sanaladi. Chunki bu yerda xom ashyonini qayta ishlashning barcha bosqichidan o’tib, eksportbop tayyor mahsulotlar tayyorlash imkoniyati yuzaga keladi.

Bunday tizim barpo qiluvchi, yangi tuzilmaning asosini “xom ashyo ta’minoti - qayta ishlash - tayyor mahsulot - sotish” jarayonlarining integratsiyalashgan birlashmasi tashkil etadi.

Viloyatdagi mazkur klaster-kooperatsiya dorivor o’simliklar yetishtiruvchi korxonalarini texnoparklar, tadbirkorlikni rivojlantirish bo’limi va boshqa manfaatdor subyektlarni birlashtiradi. Buning uchun muayyan tuman (hudud)da klaster-kooperatsiyani shakllantirish imkoniyatlari bilan bog’liq masalalarni hal etish zarur (3-rasm).




3 Muallif ishlansasi



Bunday hududiy klaster-kooperatsiya har xil tarmoqlar, tarmoqlararo kooperatsiya va integratsiyalashuv hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish; dorivor o'simliklar bozorining axborot ta'minotini yaxshilash, vositachilar sonini qisqartirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvini kuchaytirish.

Fikrimizcha, bunday "Dorivor o'simliklar klasteri" va "Dorivor o'simliklar kooperatsiyasi"ni tashkil etish dorivor o'simliklarni yetishtirish, quritish va saqlash, qayta ishlash va tayyor mahsulot sotishni yagona tizimga birlashtiradi. Bunday klaster-kooperatsiyasi tuzilmasini quydagicha tashkil etishni tavsiya etamiz (3-4-rasmlar).



4-rasm: "Dorivor o'simliklar kooperatsiyasi"ning tashkili

Shunday qilib, tavsiya etilayotgan "Dorivor o'simliklar klasteri" va "Dorivor o'simliklar kooperatsiyasi"ning tarkibiga quydagi xo'jalik yurituvchi subyektlarni kiritishimiz mumkin:

- dorivor o'simliklar yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer va dehqon xo'jaliklari hamda tomorqa yer egalari;
- dorivor o'simliklar xom ashyolarini qayta ishlash korxonalarini;
- dorivor o'simliklarni saqlash va quritish, moddiy-tehnika ta'minoti, urug'lilik tashkilotlari, laboratoriylar va b.;
- dorivor o'simliklarni reklama qilish, marketing xizmati va sotish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlanmalari bilan shug'ullanuvchi innovatsion tuzilmalar, investitsion fondlar, texnoparklar, tadbirkorlikni rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi tuzilmalar va b.



“Dorivor o’simliklar klasteri” va “Dorivor o’simliklar kooperatsiyasi”ning faoliyat samaradorligi dorivor o’simliklar (xom ashyo) yetishtiruvchi o’rmon, fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa yer egalari bilan qayta ishlash korxonalari o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning tashkiliy-iqtisodiy tizimi qay darajada yo’lga qo’ylganligi bilan belgilanadi.

Aholining dorivor o’simliklarga bo’lgan talabini qondirish va “Dorivor o’simliklar klasteri” va “Dorivor o’simliklar kooperatsiyasi” faoliyatining samaradorligini ta’minlash uning ishtirokchilari o’rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Bu asosan quyidagi maqsadlarni ko’zda tutadi:

1. Aholini iste’mol me’yorlariga muvofiq dorivor o’simliklar bilan barqaror ta’minlash;
2. Qayta ishlash korxonalarining quvvatlaridan oqilona foydalanishni ta’minlash;
3. Dorivor o’simliklar xom ashysini sifatini oshirish va assortimentini ko’paytirish.

Dorivor o’simliklar xom ashysini taqsimlash jarayonining ishtirokchilari o’rtasidagi o’zaro iqtisodiy munosabatlarni o’rganish shuni ko’rsatadiki, dorivor o’simliklarni qayta ishlash korxonalari tomonidan qabul qilish baholari bozordagi vositachi tashkilotlarining xarid baholaridan ancha arzon bo’lmoqda. Buning natijasida, dorivor o’simliklar yetishtiruvchi fermer va dehqon xo’jaliklari hamda tomorqa yer egalari uchun xom ashysini qayta ishlash korxonalariga bevosita kontraktatsiya shartnomalari asosida sotish iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi. Bunda kontraktatsiya shartnomalarida dorivor o’simliklar xom ashysini sifatiga qat’iy talablar o’rnatalishi va yuqori sifatli xom ashyo uchun ustamalar ko’zda tutilishi lozim.



5-rasm: O'zbekiston Respublikasida dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash tizimini Klaster-kooperatsiya asosida tashkil etish sxemasi⁵

Hozirgi vaqtida fermer va dehqon xo’jaliklari hamda tomorqa yer egalari bilan qayta ishlash korxonalari o’rtasida amal qilayotgan o’zaro iqtisodiy munosabatlarning tizimidagi jiddiy kamchilik – xom ashyo (dorivor o’simliklar) yetishtiruvchilarda pul mablag’larining yetishmovchiligidagi namoyon bo’lmoqda. Fikrimizcha, buning asosiy sabablaridan birinchisi, xom ashyo (dorivor o’simliklar) sifati bo’lsa, ikkinchisi dorivor o’simliklar yetishtiruvchi ishtirokchilar o’rtasida taqsimlashning iqtisodiy asoslanmaganligi hisoblanadi. Bunday o’zaro munosabatlarning tizimi fermer va dehqon xo’jaliklari hamda tomorqa yer egalari dorivor o’simliklar xom ashylarini sifatini oshirishini rag’batlantirmaydi.

5 Muallif ishlansmasi



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori. <https://lex.uz/docs/4785256>
2. Xo'jaqulova N.R. "The role and importance of medicinal plants in the development of the pharmaceutical industry" // International Journal of Management, IT & Engineering // Vol. 12 Issue 3, March 2022. U.S.A. ISSN: 2249-0558 Impact Factor: 7.119. 88-93 pages.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi "Dorivor o'simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishslashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-139-sonli farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/6027102>
4. Xo'jaqulova N.R. "State Support of Entrepreneurship in the Production of Medicinal Plants in Agriculture" // Special Issue on "Innovative Economy: Challenges, Analysis and Prospects for Development" // Academic Journal of Digital Economics and Stability.// Published in Aug-2021 956-963 pages.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishslash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4901-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/5125714>
6. Xo'jaqulova N.R. "Ways to improve the current state of cultivation and processing of medicinal plants and it's importance" // Journal of Management Value & Ethics // India // Gwalior-M.P. 25-31 pages. (OAK 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari; Osiyo mamlakatlari nashrlari № 6).

Yashi

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

